

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI QOSHIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.20/13.05.2020.Ss.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

YUSUBOV JAMSHID QADAMOVICH

**YANGI O‘ZBEKISTONDA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINI
TAKOMILLASHTIRISH TENDENSIYALARI**

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar

**SIYOSIY FANLAR DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

UO‘K: 323:331.105.44-057.34 (575.1)

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of the Doctor of Sciences (DSc)

Yusubov Jamshid Qadamovich

Yangi O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirish
tendensiyalari..... 3

Юсубов Жамшид Кадамович

Тенденции совершенствования государственной гражданской службы в
Новом Узбекистане..... 33

Yusubov Jamshid Kadamovich

Trends in the improvement of the state civil service in New
Uzbekistan..... 69

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 74

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI QOSHIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.20/13.05.2020.Ss.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

YUSUBOV JAMSHID QADAMOVICH

**YANGI O‘ZBEKISTONDA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINI
TAKOMILLASHTIRISH TENDENSIYALARI**

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar

**SIYOSIY FANLAR DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.DSc/Ss52 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi veb-sahifasi (www.dba.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Quranbayev Qaxramon Qo‘chqarovich
siyosiy fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ravshanov Fazliddin Ravshanovich
siyosiy fanlar doktori, professor

Jo‘raqulov Furqat Noryigitovich
siyosiy fanlar doktori, professor

Bekmurodov Mansur Bobomurodovich
sotsiologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi qoshidagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.20/13.05.2020.Ss.23.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 45-uy. Tel.: (+99871) 232-60-87, faks: (99871)239-17-83, e-mail: info@dba.uz)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 45-uy, Tel.: (+99871) 232-60-87, faks: (99871)239-17-83, e-mail: info@dba.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “_____” _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

D.B.Sayfullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor.

G.O.Sa’diyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.T.Jalilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar doktori, professor.

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tajribasi shundan dalolat bermoqdaki, davlat fuqarolik xizmati instituti zamonaviy siyosiy tizimlarning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlovchi asosiy institutlardan biri sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik xizmati nafaqat boshqaruv apparatining bir bo'g'ini, balki davlatning strategik intellektual salohiyatini shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayonda kadrlar salohiyati, ularning bilim va kompetensiya darajasi, xizmatga tanlov va lavozimga tayinlashning shaffofligi, faoliyatni baholash tizimining aniq mezonlarga asoslanishi davlat boshqaruvining samaradorligini belgilab beruvchi hal qiluvchi mezon sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, jahon amaliyotida davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirishda raqamli transformatsiya, innovatsion boshqaruv texnologiyalari, inson kapitalini samarali boshqarish, axloqiy boshqaruv standartlari va inklyuziv siyosiy ishtirokni ta'minlash kabi yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda kechayotgan siyosiy va ijtimoiy jarayonlar shundan dalolat bermoqdaki, davlat xizmati sohasidagi islohotlar davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish, milliy suverenitetni mustahkamlash va demokratik boshqaruv tamoyillarini chuqurlashtirishning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Jumladan, OECD Public Governance Directorate, World Bank Civil Service Reform Program, Harvard Kennedy School of Government, Singapore Civil Service College kabi institutlar fuqarolik xizmatini rivojlantirishda meritokratiya, shaffof boshqaruv, raqamli servislari, fuqarolik javobgarligi, inson kapitalini rivojlantirish va etik boshqaruv tamoyillarini ustuvor yo'nalish sifatida belgilamoqda. Shuningdek, xalqaro amaliyotda davlat xizmatini baholashda samaradorlik indeksi (Civil Service Effectiveness Index), institutsional shaffoflik ko'rsatkichlari, inson kapitalini boshqarish mezonlari kabi indikatorlar asosida ilmiy-amaliy yondashuvlar shakllanmoqda. Mamlakatimizda davlat boshqaruv organlari va tashkilotlarida kadrlar ma'muriyatchiligining zamonaviy usullarini ilg'or xalqaro standartlarga muvofiq joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etilib,¹ bugungi kunga kelib uning negizida Boshqaruv samaradorligi agentligi faoliyati yo'lga qo'yildi².

O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini salohiyatli va istiqbolli rahbar kadrlar bilan ta'minlashda davlat xizmatchilarining bilim va ko'nikmalarini zamonaviy texnologiyalar asosida baholash, uning natijalarini tahlil qilish, rahbar kadrlar faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan manzilli choralar ko'rish maqsadida "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunni qabul qilinishi³,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-son Farmoni, 2019-yil 3-oktyabrdagi PQ-4472-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. www.lex.uz.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-iyuldagi "Davlat boshqaruvi tizimida samaradorlik, proaktivlik va natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-111-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7630445>

³ O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-6145972>.

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi muassisligida Rahbar kadrlarni baholash markazi tashkil etilishi⁴ bu sohaning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi O‘RQ-788-son “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi PF-5843-son “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2025-yil 19 iyundagi PF-95-son “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2025-yil 14-iyuldagi PF-111-son “Davlat boshqaruvi tizimida samaradorlik, proaktivlik va natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi PQ-4472-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. “Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va liberallashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁵. Davlat xizmati faoliyatiga oid muammolarni tadqiq etish doirasida o‘tkazilgan izlanishlar quyidagilarda o‘z aksini topgan, jumladan, ilmiy natijalar olingan: davlat boshqaruvi (Public Administration)da davlat xizmatining xususiyatlari aniqlangan (International Project Management Association (IPMA), Institute research social opinion of Gallup, BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi (United Nations Human Rights Council), Asian Strategy and Leadership Institute (Malayziya), davlat xizmatida kadrlar tayyorlashning siyosiy-huquqiy asoslari ochib berilgan (American Management Association (AQSh), American Association ColleGES and Schools of Business (AQSh), Center for Creative Leadership (AQSh), Institute of Academy for study Modern International Relations Europe and Asia (Xitoy), Graduate School at

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-oktyabrdagi “Rahbar kadrlarni baholash markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi 629-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7760407>.

⁵ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: <https://www.gwu.edu>, <http://www.hsfk.de>, www.uncentralasia.org, <https://www.ohchr.org/>, <https://www.osce.org/>, <https://www.hrw.org/>, www.nti.org, <https://www.amnesty.org/en/>, <https://freedomhouse.org>, www.unicef.org, <https://en.unesco.org>, <https://www.upenn.edu/>, <https://www.columbia.edu>, <https://www.stanford.edu/>, www.iips.org, www.nira.org, www.cbs.dk/en, www.leeds.ac.uk, www.u-tokyo.ac.jp, <https://ru.rags.ru>, <https://ru.dugin.ru>, www.useoul.edu, www.uni-freiburg.de, www.csis.org, www.iips.org/en/, www.riss.ru, www.chinacenter.net, www.uzstrateg.info, www.ifs-frankfurt.de, www.centralasiaprogram.org, <https://www.ena.fr/>, <https://islg.cuny.edu/team>; <http://www.ilgs.edu.gh/>; <https://www.birmingham.ac.uk/research/spotlights/connecting-cultures.aspx>; <https://acelg.org.au>; <https://en.nagoya-u.ac.jp/>; <https://nagoyauniversity.uz/>; <https://dba.uz/uz>; <https://nuu.uz> va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

Law and Politics (Yaponiya), Seoul of National University (Janubiy Koreya), York universiteti (Kanada), davlat xizmati faoliyati samaradorligini oshirishning demokratik va ijtimoiy-institutsional omillari ishlab chiqilgan (Li Kuan Yu davlat siyosati maktabi (Singapur), Fuqarolik jamiyati va mahalliy boshqaruvni rivojlantirish instituti (Rossiya), Ecole nationale d'Administration (Fransiya), The Institute for State and Local Governance (AQSh), Institute of Local Government Studies va University of Birmingham (Buyuk Britaniya), The Australian Centre of Excellence for Local Government (Avstraliya), The Nagoya University (Yaponiya), Central Officials Training Institute (Koreya) hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, O'zbekiston Milliy universiteti tomonidan olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mazkur masalani ilmiy jihatdan o'rgangan olimlar ilmiy ishlarni 3 guruhga ajratish mumkin:

Birinchi guruh: Sharq va G'arb mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Samandar Termiziy, Yusuf Xos Hojib, Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy Nizomulmulk, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy⁶ asarlarida davlat boshqaruvining shakllanishi va rivojlanishi muhim tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan.

Antik va o'rta asr faylasuflari Aflotun, Arastu, Gerodot, T.Gobbs, J.Russo, N.Makiavelli va boshqalarda davlat fuqarolik xizmati institutiga oid nazariyalar, ideal jamiyat tushunchalari tadqiq etilgan.

Ikkinchi guruh: G'arb olimlaridan L.Yefremov, R.Zummer, K.Pyuler, S.Salon, F.Teylor, S.Parkinson, M.Rustomdji, P.De Bryuyn hamda rossiyalik G.Atamanchuk A.Shkredov, X.Valeev, A.Barabashev, M.Kazakova, M.Gvozdeva, Ye.Vasileva, I.Shleverd, R.Kaplan, D.Norton, X.Rampersad, K.Nomden, A.Matey, G.Kameliya, Ya.Buleka, L.Mura, P.Eme, T.Berte, A.Grosmer, S.Bird, G.Bukert, Dj.Xalligan, G.Klark, G.Kouts va boshqalar davlat xizmati faoliyati samaradorligi masalalarida tadqiqotlar⁷ olib borishgan.

Shuningdek, rus olimlari A.Klochkov, E.Zorina, N.Kolosovskaya, Ye.Islamgaliyeva, V.Polovinko, O.Timoshenko, V.Yarishina, T.Paley, D.Zaripova, N.Klish, L.Vagina (Fotina), V.Grajdan, V.Lukyanenko, K.Magomedov, V.Nechiporenko, E.Oxoskiy, B.Ponomarenko, V.Sulemov, A.Turchinov⁸ va boshqalarning ishlarida davlat fuqarolik xizmatining institutsional va huquqiy asoslari, davlat fuqarolik xizmati rivojlanishining obyektiv qonuniyatlari ochib berilgan. Kadrlar tayyorlashning tashkiliy-uslubiy jihatlari (L.Vasilenko, N.Korostyleva, V.Romanov), kadrlarni o'qitish sifati va tayyorlash jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish (E.Litvinseva, N.Taushkanov, O.Usolseva), kadrlarni qayta o'qitishda kompetentlik yondashuvini amalga oshirish jihatlari (R.Boyatsis, L.Vasilenko, I.Zimnyaya, E.Kudryavseva, S.Mixeev) maxsus o'rganilgan⁹.

Uchinchi guruh: yurtimiz olimlaridan M.Qirg'izboyevda fuqarolik jamiyati institutlarining takomillashuv jarayonlari, T.Alimardonovda rahbarning axloqiy

⁶ Dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida ko'rsatilgan.

⁷ Dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida ko'rsatilgan.

⁸ Dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida ko'rsatilgan.

⁹ Dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida ko'rsatilgan.

qiyofasi, Q.Quranboyevda davlat boshqaruv kadrlari tizimi shakllanishi va rivojlanish muammolari, F.Ravshanovda rahbar kadrlar tanlash negizlari, F.Jo‘raqulovda fuqarolik jamiyatini qurish sharoitida davlat ijroiya hokimiyati tizimini modernizatsiyalash, T.Narbayevda davlat fuqarolik xizmatida kadrlar zaxirasini shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari, O.Xasanovda O‘zbekistonda siyosiy modernizatsiya jarayonlarida davlat kadrlar siyosatini rivojlantirish tendensiyalari, M.Bekmurodovda zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi va davlat fuqarolik xizmatchisining odob-axloq qoidalari A.Yuldashevda O‘zbekiston davlat boshqaruvi tizimida rahbar kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning tarixiy tahlili, A.Yusupovda davlat boshqaruvi samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish, B.Omonovda davlat xizmatlari asoslari, K.Mirzaaxmedovda davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirishda siyosiy hokimiyat legitimligini takomillashtirish mexanizmlari, M.Atamuratovda boshqaruv kadrlar kompetentligi yuksalishining nazariy-konseptual asoslari, L.Muxammadjonovada davlat xizmatchisining etikasi va imidji, Y.Ernazarovada davlat xizmati kasbiy madaniyatini rivojlanishining falsafiy-konseptual tahlili¹⁰ tadqiq etilgan.

Yuqorida keltirilgan xorijiy va o‘zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlari mazkur tadqiqotni amalga oshirishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, Yangi O‘zbekistonni barpo etish, uning konseptual asoslarini rivojlantirish, shuningdek davlat fuqarolik xizmati faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi institutsional tizim va uning prinsiplarini shakllantirish bilan bog‘liq izlanishlar yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishi rejasining “Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, sud-huquq islohotlarining mushtarakligi” mavzusi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining maqsadi: Yangi O‘zbekiston sharoitida davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirishning siyosiy-institutsional asoslarini aniqlash, uning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari va samaradorlik omillarini tahlil qilish hamda fuqarolik xizmatini ilmiy-nazariy jihatdan rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

davlat fuqarolik xizmati tushunchasi va davlat fuqarolik xizmatida samaradorlik tushunchasining ijtimoiy-siyosiy mohiyati, davlat fuqarolik xizmati tizimi siyosiy-huquqiy asoslarini nazariy-metodologik jihatlarini o‘rganish;

Davlat fuqarolik xizmati samaradorligini oshirishning zamonaviy transformatsiya jarayonlari, bu borada rivojlangan mamlakatlar tajribasi va O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmati tizimining shakllanishi va institutsional asoslarini tahlil etish;

Davlat fuqarolik xizmatchisi salohiyatini oshirish jarayonlari, davlat boshqaruvida ma’muriy islohotlar olib borilishi, uni davlat fuqarolik xizmatini

¹⁰ Dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida ko‘rsatilgan.

rivojlantirishdagi rolini oshirish, davlat fuqarolik xizmatchisi salohiyatini oshirish va baholash mezonlarining shakllanishini tadqiq qilish;

O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilish, davlat fuqarolik xizmati samaradorligini oshirishda raqamli transformatsiya, zamonaviy texnologiyalar va davlat fuqarolik xizmati samaradorligini oshirish tizimini takomillashtirishga to'sqinlik qilayotgan omillar va muammolarni aniqlash;

Yangi O'zbekiston sharoitida davlat fuqarolik xizmati samaradorligini oshirishga doir amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishning ilmiy asoslarini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning obyektini Yangi O'zbekiston sharoitida davlat boshqaruvi tizimidagi davlat fuqarolik xizmati institutining takomillashish jarayonlari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini davlat fuqarolik xizmati faoliyati, uni samaradorligini oshirishning zamonaviy usullari, mezonlari, normativ-huquqiy hujjatlar va mazkur jarayonda vujudga keladigan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari sifatida tizimli tahlil, tarixiylik, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, institutsional yondashuv, funksional va kompetensiyaviy yondashuvlar qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

davlat fuqarolik xizmatining institutsionallasuvi jarayonida xizmatchilar shaxsiy-axloqiy fazilatlari (adolatparvarlik, fidoyilik, mas'uliyat) bilan xizmat majburiyatlari va tashkiliy talablar o'rtasidagi ziddiyat, shuningdek "ijtimoiy intilish – amaliy sharoit" nomuvofiqligi ilk bor siyosiy-psixologik yondashuv asosida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni keltirib chiqaruvchi omil sifatida klassifikatsiya qilinib, kadrlar rotatsiyasi, xizmat barqarorligi va ichki nazorat mexanizmlarining samaradorlikka ta'siri dinamikasiga ko'ra ochib berilgan;

O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmati, hokimiyat tizimi va xizmatchilar o'rtasidagi institutsional ziddiyat hamda vertikal va gorizontal ta'sir mexanizmi ilk bor "balans modeli" asosida konseptuallashtirilib, ijobiy va salbiy holatlar nisbati komparativ yondashuv orqali baholandi hamda muvozanatni ta'minlashning davlat xizmatining samaradorligiga ta'siri kadrlar mobilligi, institutsional barqarorlik va jamoatchilik ishonchi mezonlari asosida balanslashgan samaradorlik tamoyiliga ko'ra ochib berilgan;

kadrlarni tanlash, tayyorlash va tayinlash "uchligi" tizimida kadrlar tayyorlash maktablaridagi institutsional inersiya ilk bor kompetensiyaviy-integratsion model asosida ochib berilib, yosh rahbarlarning amaliy ko'nikma va siyosiy-iqtisodiy bilimining yetarli emasligi davlat xizmatining samaradorligiga ta'sir etuvchi omil sifatida baholandi hamda ushbu inersiyani bartaraf etishga xizmat qiluvchi innovatsion mexanizm kadrlar tayyorgarligining zanjirli integratsiyasi va malakani oshirish hamda amaliy tayyorgarlik jarayonlariga raqamli ta'lim vositalari joriy etilishi asosida takomillashtirilgan;

davlat fuqarolik xizmatida jamoatchilik nazoratining sustligi hamda davlat xizmatchilarida siyosiy ong va siyosiy madaniyat darajasining yetarlicha shakllanmaganligi institutsional barqarorlikka salbiy ta'sir etuvchi omil sifatida

siyosiy-madaniy kompetensiyaviy model asosida ochib berilib, ushbu jarayonda oliy ta'lim tizimida bo'lajak davlat xizmatchilarida amaliy ko'nikma va fuqarolik madaniyatini rivojlantirishni ta'minlaydigan "kompetensiyaviy sintez modeli"ga ehtiyoj zarurligi institutsional refleksiya mexanizmi nuqtai nazaridan asoslangan;

ilg'or xorijiy tajribalar asosida davlat fuqarolik xizmati samaradorligini ta'minlovchi autsorsing va kraudsorsing kabi siyosiy boshqaruv texnologiyalari fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati bilan hamkorlik, ochiq muloqot va jamoatchilik fikrini inobatga olish mexanizmlari orqali uyg'unlashtirilib, ochiqlik (transparency), hisobdorlik (accountability) va jamoatchilik ishtiroki (participation) tamoyillari asosida institutsional barqarorlik va ijtimoiy sheriklik mezonlariga ko'ra takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Yangi O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmatida yuz bergan institutsional o'zgarishlar ilmiy-nazariy asosda tizimlashtirilib, ularning davlat boshqaruvi samarasiga ta'siri kompleks tahlil qilingan;

milliy davlat fuqarolik xizmatini haqiqiy meritokratiya tamoyillari asosida rivojlantirish modeli, uning mezonlari hamda amalga oshirish mexanizmlari ilmiy asoslangan;

davlat fuqarolik xizmatchilarini mehnat faoliyatini baholash, motivatsiya va rag'batlantirish hamda muammolarning oldini olishning zamonaviy mexanizmlari milliy amaliyotga moslashtirilgan holda taklif etilgan;

davlat fuqarolik xizmatida zamonaviy raqamli texnologiyalar elementlari (e-government, HR-analytics, elektron kompetensiya kartalari)ning ta'sirini baholovchi yangi analitik yondashuv ishlab chiqilgan;

Dissertatsiya yuzasidan "O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmatining takomillashish jarayonlari" nomli monografiya chop etilib, O'zbekiston Respublikasi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun loyihasi (1-bob, 4-, 5-modda, 3-bob, 11-, 12-modda, 5-bob, 24-modda, 7-bob, 36-moddalarida keltirilgan normalarni)ni ishlab chiqishda taklif va tavsiyalar berilgan;

"O'zbekiston" telekanalining "Munosabat" teleko'rsatuvi hamda "O'zbekiston 24" telekanalining "Menimcha..." teleko'rsatuvi ssenariysida, ijtimoiy-siyosiy tahlil material tayyorlash va efirga uzatishda dissertatsiya ilmiy xulosalari va taklif-tavsiyalaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchligini barcha manbalarning olinganligi xalqaro miqyosdagi, shuningdek, respublika darajasidagi ilmiy-amaliy konferensiyalar to'plamlari, OAK ro'yxatiga bevosita kiritilgan mamlakatimiz va xorijiy mamlakatlar jurnallarida chop etilgan maqolalar, tadqiqotda foydalanilgan uslublarning obyektivligi, xulosalar, amaliy taklif hamda tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalari Yangi O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmati tizimini yanada takomillashtirish jarayonlarini amaliy jihatdan qo'llab-quvvatlashga xizmat qilib, unda ishlab chiqilgan tashkiliy-huquqiy takliflar davlat organlarida kadrlar siyosati va xizmat faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish imkonini beradi. Davlat fuqarolik xizmatida

kadrlarni tanlash, attestatsiyadan o'tkazish, xizmat samaradorligini baholash va rag'batlantirish jarayonlariga zamonaviy, shaffof va raqobatbardosh yondashuvlarni joriy etish, xizmatchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan modellar davlat organlari amaliyotida to'g'ridan-to'g'ri joriy etish imkoniga ega. Tadqiqotda taklif etilgan raqamli boshqaruv yechimlari, elektron kadrlar menejmenti va HR-analitika elementlari davlat xizmatini raqamlashtirish jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, davlat fuqarolik xizmatchilari uchun kompetensiyaga asoslangan baholash va rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslanishi amaldagi kadrlar siyosatida yagona standartlarni shakllantirish ko'maklashib, davlat boshqaruvi tizimining institutsional salohiyati oshirishga yordam beradi.

Dissertatsiyada keltirilgan ma'lumotlar, ilmiy tahlillar va xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi tinglovchilari va oliy o'quv yurtlari talabalari uchun "Siyosatshunoslik", "Amaliy siyosatshunoslik", "Davlat xizmati", "Davlat fuqarolik xizmati", "Davlat boshqaruvi", "Davlat xizmatchisi etikasi va imiji", "Boshqaruvda qarorlar qabul qilish" kabi fanlardan tegishli mavzularni o'qitishda, ma'ruza matnlari tayyorlash va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangi O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirish tendensiyalari bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

davlat fuqarolik xizmatining institutsionallasuvi jarayonida xizmatchilar shaxsiy-axloqiy fazilatlari (adolatparvarlik, fidoyilik, mas'uliyat) bilan xizmat majburiyatlari va tashkiliy talablar o'rtasidagi ziddiyat, shuningdek kadrlar rotatsiyasi, xizmat barqarorligi va ichki nazorat mexanizmlarining samaradorlikka ta'siri dinamikasini ochib berishga doir xulosalardan norma ijodkorligi faoliyati jarayonida Qonunni ko'rib chiqilishi jarayonida tuzilgan ishchi guruhi tomonidan O'zbekiston Respublikasi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun loyihasi (1-bob, 4-, 5-modda, 3-bob, 11-, 12-modda, 5-bob, 24-modda, 7-bob, 36-moddalarida keltirilgan normalarni ishlab chiqish)ni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasining 2024-yil 1-fevraldagi 13-sonli dalolatnomasi). Natijada mahalliy davlat hokimiyati organlariga davlat xizmatchisi faoliyatining samaradorligini baholash (KPI), ma'lumotlarni tahlil etish hamda davlat fuqarolik xizmatining asosiy prinsiplariga amal qilishga oid topshiriqlarni shakllantirishga xizmat qilgan.

O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmati, hokimiyat tizimi va xizmatchilar o'rtasidagi institutsional ziddiyat hamda vertikal va gorizonta ta'sir mexanizmi, ijobiy va salbiy holatlar nisbati komparativ yondashuv orqali baholanishi hamda muvozanatni ta'minlashning davlat xizmatining samaradorligiga ta'siri kadrlar mobilligi, institutsional barqarorlik va jamoatchilik ishonchi mezonlari asosida balanslashgan samaradorlik tamoyiliga oid xulosalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining faoliyatida foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yil 11-martdagi 01-1-263-son ma'lumotnomasi). Natijada 2023-yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish

bo'yicha chora-tadbirlar dasturining 5-yo'nalishida belgilangan vazifalarni bajarish va davlat fuqarolik xizmati tizimida qonuniylik, adolatlilik, xalqqa xizmat qilish tamoyillarini takomillashtirishga oid amaliy takliflarni ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Kadrlarni tanlash, tayyorlash va tayinlash "uchligi" tizimida kadrlar tayyorlash maktablaridagi institutsional inersiyaning kompetensiyaviy-integratsion model asosida ochildirilishi, yosh rahbarlarning amaliy ko'nikma va siyosiy-iqtisodiy bilimining yetarli emasligi davlat xizmatining samaradorligiga ta'sir etuvchi omil sifatida baholanishi hamda ushbu inersiyani bartaraf etishga xizmat qiluvchi innovatsion mexanizm kadrlar tayyorgarligining zanjirli integratsiyasi va malakani oshirish hamda amaliy tayyorgarlik jarayonlariga raqamli ta'lim vositalari orqali joriy etilishiga doir xulosalardan mahalliy davlat ijro hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat tashkilotlari boshqaruv kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarini tashkil etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutining 2024-yil 2-martdagi 01-12/10-sonli dalolatnomasi). Natijada Yoshlar ishlari agentligida davlat fuqarolik xizmatiga oid bilimlarini oshirish, ularning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va ma'naviy salohiyatini yanada yuksaltirish, rahbarlik va boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilgan;

davlat fuqarolik xizmatida jamoatchilik nazoratining sustligi hamda davlat xizmatchilarida siyosiy ong va siyosiy madaniyat darajasining yetarlicha shakllanmaganligi institutsional barqarorlikka salbiy ta'sir etuvchi omil sifatida siyosiy-madaniy kompetensiyaviy model asosida ochildirilishi, ushbu jarayonda oliy ta'lim tizimida bo'lajak davlat xizmatchilarida amaliy ko'nikma va fuqarolik madaniyatini rivojlantirishni ta'minlaydigan "kompetensiyaviy sintez modeli"ga ehtiyoj zarurligini asoslashga doir xulosalardan 2022-yildan boshlab "O'zbekiston" telekanalining "Munosabat" teleko'rsatuvi hamda "O'zbekiston 24" telekanalining "Menimcha..." teleko'rsatuvi ssenariysida, ijtimoiy-siyosiy tahlil material tayyorlash va efirga uzatishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 4-martdagi 04-15/453-son dalolatnomasi). Natijada davlat fuqarolik xizmati sohasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi va ahamiyati bilan yaqindan tanishtirishga ilmiy-tahliliy manba hamda yoshlarning, xususan, aholimizning davlat fuqarolik xizmatiga oid ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma'naviy bilim va dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qilgan.

ilg'or xorijiy tajribalar asosida davlat fuqarolik xizmati samaradorligini ta'minlovchi autsorsing va kraudsorsing kabi siyosiy boshqaruv texnologiyalari fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati bilan hamkorlik, ochiq muloqot va jamoatchilik fikrini inobatga olish mexanizmlari orqali uyg'unlashtirilishi hamda ochiqlik (transparency), hisobdorlik (accountability) va jamoatchilik ishtiroki (participation) tamoyillari asosida institutsional barqarorlik va ijtimoiy sheriklik mezonlariga ko'ra takomillashtirilishiga doir xulosalardan Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining 2024-yil 11-martdagi JD97926868-son dalolatnomasi). Natijada, davlat fuqarolik xizmatida yuksak kasb etikasini shakllantirishga oid materiallarni tahlil qilish, prognozlashtirish ko'rsatkichlarini tayyorlashda metodik manba sifatida xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari, 11 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 4 ta xalqaro va 7 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma’ruzalarida bayon etilgan va aprobatyadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 26 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, bitta monografiya, O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari bo’yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola, ulardan 10 tasi respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to’rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 225 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o’rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo’nalishlariga mosligi ko’rsatilgan, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi yoritilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Davlat fuqarolik xizmati faoliyati samaradorligini oshirishni tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi uch paragrafdan iborat bo’lib, unda davlat fuqarolik xizmati va samaradorlik tushunchalarining ijtimoiy-siyosiy mohiyati, nazariy-metodologik asoslari va davlat fuqarolik xizmati tizimi siyosiy-huquqiy asoslari tahlil etilgan.

Davlat boshqaruvi, davlat xizmati tushunchalari qadim davrlarga borib taqaladi. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel yozganidek: “Monarxlar o’z hokimiyatlariga hamdard bo’lgan va shaxsan o’zlariga yaqin bo’lgan odamlarni o’z hokimiyatlariga sherik qilib, ko’plab ko’zlar, quloqlar, qo’llar va oyoqlar yordamiga murojaat qilishga majbur bo’ladilar”¹¹. “Temur tuzuklari”da Zayniddin Abubakr Toybodiynning quyidagi fikri keltiriladi: “Abulmansur Temur, saltanat ishlarida to’rt narsaga amal qilgin, ya’ni: 1) kengash; 2) mashvarat-u maslahat ayla; 3) hushyorlig-u mulohazakorlik bilan qat’iy qaror chiqar; 4) ehtiyotkorlik qil”¹².

Tarixga nazar tashlasak, Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy Nizomulmulk¹³ va Amir Temur¹⁴ davlatni idora qilishda mashvarat hamda kengashga asoslanish ishning samarali bo’lishi bilan bir qatorda, kutilgan natijani beradi, degan qoidaga amal qilishgan. XVI asrda yashagan olim N.Makiavelli davlat boshqaruvini bir necha yo’nalishlarda tadqiq qilgan. Xususan, “Hukmdor” asarida¹⁵ davlat rahbarining

¹¹ Аристотель. Соч. Т. 4. – М., Мысль, 1983. – С. 830.

¹² Amir Temurning davlat xizmati haqida qarashlari to’g’risida Ravshanov F.R. Milliy rahbarshunoslik: tarix va tajriba. – T.: Akademiya, 2007. – B. 262.

¹³ Сийёсатнома (Сияр ул-мулук) / Низомулмулк. – Т.: Янги аср авлоди, 2021. – B. 304.

¹⁴ Temur tuzuklari / Amir Temur Ko’ragon. – T.: IJOD-PRESS, 2019. – B. 160.

¹⁵ Макиавелли Н. Хукмдор. – Т.: Давр-Пресс, 2019. – B. 144.

faoliyat samaradorligini oshirish natijasida boshqaruv tizimini takomillashtirish mumkin, degan fikrni olg'a suradi. Ikki asr o'tib Sh.Monteske o'zining "Qonunlar ruhi haqida" asarida boshqaruvchi rahbar va fuqarolar o'rtasidagi majburiyatlarni qonuniylashtirish kerak va bu samaradorlikga ijobiy ta'sir qiladi, deydi¹⁶. Klassik maktab tarafdorlari "samaradorlik fenomeni"ni muayyan belgilangan maqsadlarga belgilangan aniq vaqtda erishish, deb ta'riflashgan. Jumladan, F.Teylor, M.Veber, va V.Vilson o'z nazariyalarida boshqaruv faoliyatidagi birinchi tamoyilni samaradorlik, deb hisoblashgan¹⁷.

XX asrning birinchi choragida davlat boshqaruvini mustaqil fan sifatida rivojlanishida ilmiy menejment, klassik (ma'muriy boshqaruvni o'rganish), psixologiya va kishilik munosabatlari, boshqaruv maktablari (miqdorlar asosida o'rganish) katta hissa qo'shdilar. Ushbu maktablarning yirik vakillari F.Teylor, L.Urvik, A.Fayol, D.Muni, M.Veber, G.Gant, S.Parkinson, G.Fordlar hisoblanadi. A.Fayol istiqbolni belgilash hamda strategik, taktik rejalashtirishga muhim e'tibor qaratgan. XX asrning o'rtalarida "kishilik munosabatlari maktabi" vakillari A.Maslou, O.Xersberger, F.Rotlisberger, D.Moreno, E.Meyo, D.Makgregor qarashlarida shaxs mehnat faoliyatining ijtimoiy jihatlari muhim o'rin tutgan. XX asrning so'nggi choragida davlat xizmatidagi boshqaruv nazariyasiga oid bir qator tadqiqotlar e'lon qilindi¹⁸. Olimlarning fikricha, davlat xizmati siyosiy institut sifatida ijtimoiy amaliyotning maxsus turini ifodalaydi. Shu bilan bir qatorda, davlat xizmati faqat huquqiy emas, balki axloqiy tizim hamdir: davlat xizmati xodimlarining huquqiy ongini shakllantirar ekan, bir vaqtning o'zida u zarur axloq, axloqiy qadriyatlar tashuvchisi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda personalni boshqarishdagi asosiy yo'nalishlar va ustuvorliklarni aniqlash strategiyasida ma'muriy islohotlar yetakchi rol o'ynaydi. Mazkur jarayonda ayrim vazirliklar, idora va hududlarda ko'pincha ma'muriy islohotni, boshqaruvning mazmun-mohiyatini o'zgartirmasdan, faqatgina xodimlar sonini shunchaki qisqartirishdan iborat, deb yuzaki qaror qabul qilinmoqda. Shu o'rinda aytish kerakki, kadrlar siyosati masalasida davlat hokimiyati tizimidagi rahbar kadrlar va davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya¹⁹ tamoyili asosida shakllantirish, ijro hokimiyati faoliyati va boshqaruvini takomillashtirish, institutsional asoslarini qayta ko'rib chiqish va yaratish muhimdir. Mazkur sohaning shakllanishiga mahalliy davlat hokimiyati tizimida hokimlik instituti joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish

¹⁶ Монтескье Ш. О духе законов. – М.: Мысль, 1999. – С. 674.

¹⁷ Коморовский В.С., Сморгунев Л.В. Политико-административное управление. – М.: РАГС, 2004. – С. 496.

¹⁸ Qarang: Старилов Ю. Н. Государственная служба и служебное право: учеб. пособие. М.: Норма: ИНФРА – М, 2016. – С. 137.; Волкова В.В. Реализация поощрительных норм на государственной службе: состояние и перспективы развития // Современное право. 2016. № 10, – С. 70-74.; Караваев А.Н. Проблемы совершенствования института поощрения в государственно-служебных отношениях: перспективы развития // Правовая культура. 2017. № 2 (29). – С. 59-63.; Хабриева Т.Я. Чжао Шимин. Опыт лучших практик государственной службы России и Китая: монография. – М.: ИД Юриспруденция, 2020, – С. 396.; Полетаев Ю.Н., Ключков М.А. Правовое регулирование труда государственных гражданских служащих: учеб. пособие для вузов. – М.: Юрайт, 2020. – С. 133–134.; Руссо Ж. Об общественном договоре или принципы политического права. – М.: Юрайт, 2021.

¹⁹ Meritokratiya – rahbarlik lavozimlariga ijtimoiy kelib chiqishi va moliyaviy ahvolidan kat'i nazar, eng munosib, yuqori intellektual va salohiyatli shaxslarning tayinlanish tamoyili. Qarang: Falsafa: qomusiy lug'at. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. – T.: Sharq, 2004. – B. 257.

bo'yicha bir qator islohotlar boshlangan. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi 595-sonli "Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari" nomli qaror ham muhim o'rinni egallaydi. Aynan mazkur hujjatda mamlakatda ilk bor davlat xizmatiga tegishli ravishda manfaatlar to'qnashuvi huquqiy kategoriya sifatida normativ jihatdan mustahkamlandi²⁰.

Mamlakatimizda 2018-yildan boshlab, professional davlat fuqarolik xizmatining samarali tizimini shakllantirish, bu sohadagi vazifalarni aniq belgilash, davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish va ularning tashkiliy-huquqiy asoslarini ishlab chiqishga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, 2022-yil 8-avgustda "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining sonini 2023-yil 1-yanvardan 61 tadan 28 tagacha, shu jumladan vazirliklar sonini 25 tadan 21 tagacha qisqargani xalq tomonidan iliq qarshi olindi²¹. Bugungi kunda 20 ta hisoblanadi. Sohaga doir qonunchilikda "Davlat fuqarolik xizmati - davlat xizmatining bir turi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat fuqarolik xizmati lavozimlaridagi davlat organlari vakolatlari amalga oshirilishini ta'minlashga doir haq to'lanadigan kasbiy faoliyatini ifodalaydi"²² deb ta'riflanadi va samarali fuqarolik xizmati davlat hokimiyatining mustahkamligi, uning obro'si va yuqori dinamizmining asosiy omili hisoblanadi.

Olima ayol, professor Lalixon Muxammadjonovanning fikricha, "davlat xizmatidagi xodimlarning huquqiy va axloqiy madaniyati bir-biriga mutanosib bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan mansabdor shaxslarda siyosiy hislatlar bilan bir qatorda, axloqiy fazilatlarini shakllantirish zaruriy holdir. Axloqiy barkamollik davlat xizmatidagi xodimlarning ishbilarmonlik sifatlaridan biri hisoblanadi"²³. Davlat boshqaruvi va davlat xizmati tushunchalarining o'zaro nisbatini o'rganishda dastlab davlat xizmati tushunchasini mazmunini o'rganib chiqsak. Bizga ma'lumki, davlat xizmati quyidagi turlarga bo'linadi: Davlat fuqarolik xizmati; O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi harbiy xizmat; Huquqni muhofaza qiluvchi organlardagi xizmat davlatning maxsus xizmati²⁴.

2019-yil 27-maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida²⁵ ustav jamg'armasida davlat ulushi bo'lgan tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" (compliance control) tizimini joriy etish, uning samaradorligini monitoring qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish tegishli korrupsion standarti (ISO 37001)ga muvofiq, sertifikatlashtirish tartibini o'rnatish vazifasi belgilangan bo'lib, hozirda mamlakatimizda mazkur yo'nalishda ishlar amalga oshirilmoqda.

²⁰ Bekmurodov A.Sh. Korrupsiyaga qarshi kurashish. – T.: Darslik, Akademiya, 2022., – B. 47.

²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/6324756>.

²² O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgust "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son Qonuni. // <https://lex.uz/docs/6145972>.

²³ Muhammadjonova L.A. Davlat xizmatchisi etikasi va imiji. O'quv qo'llanma, – T.: O'zMU, 2023. – B. 8.

²⁴ Mualliflar jamoasi. Davlat xizmati. Darslik. –T.: "Akademiya", 2025-yil, – B. 9.

²⁵ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.05.2019-y., 06/19/5729/3199-son, 20.07.2019 y.,06/19/5769/3450-son.

“Halollik vaksinasi” inson ongi va qalbida shakllanadigan korrupsiyaga qarshi nafrat tuyg‘usi va faol qarshiligida namoyon bo‘ladi. Har qanday inson ongiga “halollik vaksinasi” yoshligidan, oila va maktabda singdirib borilmog‘i lozim. U asosan tarbiya va ta’lim ko‘rinishida amalga oshiriladi. Demak, har bir odam o‘z ishini halol, davlat xizmatini xolis bajarsa, u “halollik vaksinasi” bilan emlangan bo‘ladi. Ana shunday immunitetni shakllantirish vazifasi avvalo ota-onalar, maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlari, turli darajadagi rahbarlar shuningdek, xalqimizning ziyoli, ma’naviyatli qismi zimmasiga yuklanadi.

Ammo shu bilan birga, O‘zbekiston-2030 strategiyasining “Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “Xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida tashkil etish” deb atalgan 78-maqсадida: “Sog‘liqni saqlash, qurilish, transport, ta’lim sohalarida xususiy sektor ulushini kamida 3 barobar oshirish; davlat boshqaruvida mavjud bo‘lgan 5 mingga yaqin funktsiyani amalga oshirish jarayonlarini 100 foiz raqamlashtirish; majburiy talablar yagona elektron reestriga kiritilgan majburiy talablarni kamida 20 foizga kamaytirish; davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish siyosati doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining kamida 30 foiz vazifa va funktsiyalarini mahalliy ijro organlariga o‘tkazish; davlat organlari rahbarlarining o‘zi rahbarlik qilayotgan idora yoki tizim faoliyatida yo‘l qo‘yilgan jiddiy xato va kamchiliklar uchun siyosiy javobgarligi institutini joriy qilish; davlat nazorat funktsiyalarini fuqarolar hayoti, sog‘lig‘i va xavfsizligini qat’iy ta’minlashga yo‘naltirish”²⁶ vazifalari oldimizda turibdi. Mazkur ishlarni to‘laqonli amalga oshirish davlat fuqarolik xizmatida zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini amaliyotda qo‘llashga imkoniyat tug‘diradi. Ana shu maqsadda 2025-yil 22-sentyabr kuni BMT Xalqaro davlat xizmati komissiyasi (ICSC) bilan Memorandum imzolaniб, unga ko‘ra davlat xizmatchilari va “El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiatlari BMT tizimida stajirovka o‘tash imkoniyatiga ega bo‘ldi. O‘tgan davr mobaynida Boshqaruv samaradorligi agentligiga yuklatilgan vazifa va topshiriqlarni amalga oshirish bo‘yicha 2 ta Qonun, 5 ta Prezident farmoni va qarorlari, 7 ta Vazirlar Mahkamasining qarori va farmoyishi, 4 ta idoralararo qo‘shma qaror loyihalari ishlab chiqilganini alohida ta’kidlash lozim²⁷.

Dissertatsiyaning **“Davlat fuqarolik xizmati faoliyatini samarali tashkil etishda xorijiy va milliy tajriba”** deb nomlangan ikkinchi bobida davlat fuqarolik xizmati samaradorligini oshirishning zamonaviy usullari, davlat xizmati samaradorligini oshirishda rivojlangan mamlakatlar va milliy tajriba qiyosiy-siyosiy o‘rganilgan.

Xorijiy mamlakatlarda davlat fuqarolik xizmati va boshqaruv rahbarlarini “siyosiy elita”, ishlab chiqarish sohasidagi rahbar kadrlarni “elita” deb atash an’anaga aylangan. “Siyosiy elita” tushunchasi jamiyatning ozchilik qismini tashkil etadigan, oliy tabaqaga mansub imtiyozli guruh yoki guruhlar majmuasi ma’nosini bildiradi.

²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/6600413>.

²⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi ochiq ma’lumotlari. 2025-yil, <https://vacancy.argos.uz/faqs>

Buyuk Britaniyadagi zamonaviy fuqarolik xizmati asoslari 1850–1870 yillarda yaratilgan²⁸. O‘shanda davlat xizmatiga kirish uchun ochiq tanlov imtihonlari joriy etilgan va xizmatchilar tanlovi tizimining rahbar organi sifatida boshqa ma‘muriy organlardan mustaqil bo‘lgan Fuqarolik xizmati komissiyasi ta‘sis etilib, fuqarolik xizmati asoslariga boshqaruvni siyosatdan ajratish tamoyili qo‘yilgan edi. Mazkur tamoyilga muvofiq barcha mansabdor shaxslar almashadigan siyosatchilarga (ular 100 kishiga yaqin) hamda almashmaydigan ma‘murlarga bo‘linadi. Oliy guruh (toifa) lavozimlariga tayinlovlar eng mas‘uliyatli ish bo‘lib, bu vazifani Fuqarolik xizmati vazirining shaxsan o‘zi bajaradi. Boshqa quyi toifalarga tayinlovlarni har bir vazirlikning o‘zi amalga oshiradi, quyi toifalarga tayinlovlar ham mustaqil fuqarolik xizmati komissiyasi nazorati ostida o‘tadi.

Amerika Qo‘shma Shtatlari (AQSh) fuqarolik xizmati federal miqyosda “Fuqarolik xizmati haqida” Qonun (1883)ga asosanib faoliyat yuritadi. Keyingi yillarda fuqarolik xizmatini nazorat qiluvchi qonunchilik bir necha bor yangidan to‘ldirildi, o‘zgartishlar kiritildi. 1978-yilda qabul qilingan “Fuqarolik xizmatini isloh qilish haqidagi Qonun” muhim hujjatlardan biriga aylandi. Mazkur Qonunga asosan, uchta mustaqil yangi organlar (personalga rahbarlik qilish boshqarmasi, maxsus maslahatchilar boshqarmasi, xizmat ko‘rsatganlik tizimini muhofaza qilish bo‘yicha Kengash) xodimlarni ishga qabul qilish, o‘rgatish va lavozimga ko‘tarish ishlarini boshqaradi; huquqiy me‘yor buzilishlariga oid voqealarni taftish qiladi; ro‘y bergan kamchiliklar haqida qaror chiqaradi. Xizmatga qabul qilishda yoshi va qaysi toifaga imtihon topshirish borasida cheklovlar yo‘q. Boshqa da‘vogarlariga qaraganda, veteranlar bir qator imtiyozlarga ega. AQShda biron-bir lavozimga tayinlanish munosabati bilan qasamyod qabul qilish marosimlarini o‘tkazish tajribasi mavjud.²⁹

Yaponiyada amaldagi Konstitutsiya davlat xizmatchilari maqomini “barcha xalqning xizmatkori” sifatida belgilagan. 1947-yildagi Davlat xizmatchilari to‘g‘risidagi qonun davlat xizmatchisi “faqat ijtimoiy manfaat yo‘lida ishlashi va xizmat majburiyatlarini amalga oshirish chog‘ida butun kuch va fikrini unga qaratishi lozim”ligini belgilaydi. 1950-yilda mahalliy xizmatchilar maqomini belgilovchi “Mahalliy xizmatchilar to‘g‘risida”gi qonun kuchga kirdi.

Davlat xizmatida Yaponiyagagina xos bo‘lgan “umrbod yollanish” tizimi amalda, bu tizim yollash bo‘yicha ishga kirgan shaxsni aynan bir tashkilotda uzoq vaqt (nafaqaga ketgunga qadar) ishlashini ko‘zda tutadi. Shu asnoda xizmatchining lavozimi va maosh hajmi uzluksiz ish stajiga bog‘liq qilib qo‘yiladi. Yaponiyadagi “umrbod yollanish” tizimi³⁰ bilan bog‘liq davlat xizmatining xususiyatli jihatlaridan biri bu – amaldorning o‘zi ishlayotgan idora ichida tez-tez (2–3 yilda bir bor) joy almashtirgani holda idoralararo ko‘chib yurishning yo‘qligidir. Yapon davlat xizmatining yana bir muhim o‘ziga xosliklaridan biri – elitarizm ruhi, an‘anaga ko‘ra amaldorlar izzatining saqlanishidir. Bu jihat o‘tgan asr oxirida ma‘lum bo‘lib kelgan

²⁸ О местных органах самоуправления Великобритании. – М.: 1985, – С. 59-86. Григорьев С. Местное управление в Великобритании // Вопросы экономики. 1991 № 5. – С. 52-62.

²⁹ Волкова В.В. Реализация поощрительных норм на государственной службе: состояние и перспективы развития // Современное право. 2016. № 10, – С. 70-74.

³⁰ Базилевский И.А. Вопросы государственной службы Японии // Бюллетень Министерства юстиции РФ, № 6, 1999. – С. 88.

“kenson mimpi” yondashuvida (“amaldorlar – izzatga, xalq – nafratga loyiq”) o‘z aksini topgan. Yaponcha byurokratiyaning mislsiz va betakrorligi eng avvalo milliy xususiyatning (mehnatsevarlik, jamoaviylik, obro‘ oldida bosh egish, shaxslararo munosabatlarni uyg‘unlashtirishga ehtiyoj, o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilish va h.k.) o‘ziga xosligiga ta’sir ko‘rsatgan yaponcha madaniyatning o‘ziga xosligi bilan izohlanadi³¹.

Singapur Moliya vazirligida 1973-yil iyulida poraxo‘rlikka qarshi maxsus dastur ish boshladi. Mazkur dasturga binoan: yuqori turuvchi amaldorlar tomonidan quyi turuvchi amaldorlar nazorat qilinishi oshkoraligini ta’minlash; barqaror poraxo‘rlik aloqalari shakllanishidan qochish maqsadida amaldorlar rotatsiyasini joriy qilish; nogahoniy tekshiruvlarni o‘tkazish; poraxo‘rlik maqsadlarida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan muhim axborot chiqib ketishini oldini olish uchun maxfiylik rejimini ta’minlash; poraxo‘rlikka qarshi chora-tadbirlar majmuini har 3-5 yilda qayta ko‘rib chiqish belgilanishi ijobiy natijalarga olib keldi.

Rossiya Federatsiyasida (RF)da “Davlat xizmati asoslari to‘g‘risida”gi Qonun 1995-yilning 5-iyulida qabul qilingan. Qonun davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslari, davlat xizmatchisining huquqiy imkoniyatlari asoslari va davlat xizmatini amalga oshirish tartiblarini belgilab beradi. Bundan tashqari, Rossiya Federatsiyasi Prezidentining “Federal davlat xizmatchilarining davlat lavozimlari Reestri to‘g‘risida” (1995-yil 11-yanvar), “Rossiya Federatsiyasi davlat lavozimlarida va federal davlat xizmati lavozimlarida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxslarning bir qator kafolatlari to‘g‘risida”gi (1995-yil 16-avgust) farmonlari qabul qilingan³².

MDH mamlakatlari, xususan, Qozog‘iston Respublikasining 1999-yil 23-iyulda qabul qilingan “Davlat xizmati to‘g‘risida”gi Qonunining 1-moddasida davlat xizmati – davlat hokimiyatining vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishga qaratilgan mansab vakolatlarini bajarish bo‘yicha davlat organlaridagi davlat xizmatchilarining faoliyatidir³³. Belarusda 2003-yil 14-iyunda qabul qilingan “Belarus Respublikasida davlat xizmati to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasiga binoan, davlat xizmati deganda davlat mansabini egallab, turgan holda davlat-hokimiyat vakolatlarini bevosita amalga oshirishga va (yoki) davlat organlari funksiyalari bajarilishini ta’minlashga qaratilgan professional faoliyat tushuniladi.

Qirg‘iziston Respublikasining 2004-yil 11-avgustda qabul qilingan “Davlat xizmati to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, davlat xizmati – davlat xizmatchilarining davlat organlarida professional asosda amalga oshiriladigan hamda Konstitutsiya va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilab berilgan hokimiyat vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini bajarishga qaratilgan faoliyatdir³⁴.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi da Qonuni, qo‘shni davlatlarga qaraganda, ancha kechikib, 2022-yil 8-avgustda qabul

³¹ Davlat xizmati: O‘quv qo‘llanma // E.T. Xojiyev, G.S. Ismailova, M.A. Raximova. – T.: Baktria press, 2015. – B. 123.

³² Хабриева Т.Я. Чжао Шимин. Опыт лучших практик государственной службы Россия и Китая: монография. – М.: ИД Юриспруденция, 2020. – С. 125.

³³ Xojiyev E.T., Ismailova G.S., Raximova M.A. Davlat xizmati. O‘quv qo‘llanma. – T.: Baktria press, 2015. – B. 10-11.

³⁴ Qirg‘iziston Respublikasi qonun hujjatlari www.kenesh.kg saytidan olingan.

qilindi. Buning natijasida mazkur sohada ko‘plab muammolar (maoshlar kamligi, kadrlar yetishmasligi, korrupsiya avj olishi)ning shakllanishiga sharoit tug‘dirdi, deyish mumkin. Mazkur Qonun 9-moddasiga asosan, davlat organlari: kadrlarni saralash va tanlash, davlat fuqarolik xizmatchilariga davlat fuqarolik xizmati lavozimlari malaka darajalari berish hamda xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha komissiyalarning faoliyatini tashkil etadi; davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan xizmat majburiyatlarining bajarilishini va davlat fuqarolik xizmatini o‘tash bilan bog‘liq bo‘lgan cheklovlarga rioya etilishini nazorat qiladi; davlat fuqarolik xizmatchilarini qayta tayyorlashni, ularning malakasi oshirilishini va ta‘lim olishini muntazam ravishda tashkil etadi³⁵.

Tahlillardan ma‘lum bo‘lishicha, zamonaviy davlat fuqarolik xizmatida bosh masala – kadrlar tanlash va tayyorlashni hozirgi talablar asosida yo‘lga qo‘yish hisoblanadi. Davlat xizmati kadrlari doimiy ravishda siyosiy jarayonlar, qaror va farmoyishlar bilan chuqur tanishib borishlari lozim. Rivojlangan mamlakatlarda davlat xizmati kadrlari ustidan fuqaro nazoratini ta‘minlashga nazariyada ham, amalda ham katta e‘tibor qaratiladi. O‘zbekistonda esa davlat organlari ustidan jamoat nazorati tuzilmalari sust ishlamoqda. Masalan, Germaniyada mansabdorlik ustidan fuqaroviy nazorat maxsus ma‘muriy sudlar tizimi orqali ta‘minlanadi. Fuqarolar hokimiyat organlari tomonidan huquq va burchlari buzilgani haqida e‘tirozlar bilan chiqishi mumkin. Shuningdek, kadrlarni tanlash bo‘yicha tanlov tashkil etish, o‘tkazish va natijalarini e‘lon qilishni Oliy sud o‘sha sohalar bo‘yicha davlat xizmatini amalga oshiruvchi idoralar zimmasiga topshirib, o‘zi jarayonni nazorat qiladi. Vazirliklarning har biri boshqaruvga ijtimoiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, lavozimga talabgor bo‘lgan nomzodga nisbatan qo‘yiladigan talablarni o‘zgartirish huquqiga ega bo‘ladi. Aniqlangan natija va ularga asosan kiritilgan o‘zgartishlar lavozim va shaxsning ijtimoiy va boshqa huquqlariga hamda iqtisodiy-moliyaviy holatiga ta‘sir ko‘rsatgan vaziyatlarda Ichki ishlar vaziri, Moliya vaziri va boshqa oliy darajadagi rahbar shaxslar tomonidan ko‘rib chiqilib, so‘ng tasdiqlanadi”³⁶.

Yaponiyada davlat xizmatidagi har bir xodim lavozimga sazovor bo‘lishda bir xil huquqqa ega bo‘ladi. Odatda lavozim imtihonlariga da‘vogarlar juda ko‘p bo‘ladi (bitta o‘rin uchun 25-40 tagacha da‘vogar ishtirok etadi). Imtihon topshirganlar alohida ro‘yxatga olinib, shu ro‘yxatdan muassasa o‘z ehtiyojiga mos zarur xodimni tanlaydi. Lavozimga tayinlanish yoki yuqori lavozimga o‘tirish, qonunga ko‘ra, kamida 6 oylik sinov muddati o‘tib, xodim o‘zining ijobiy jihatlarini namoyon qilganidan keyin, rasmiy tarzda e‘lon qilinadi”³⁷. Bizga ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi Milliy kadrlar zahirasi shakllantirish va yuritish ishlarini amalga oshiradi. Milliy kadrlar

³⁵ Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 09.08.2022-y., 03/22/788/0723-son.

³⁶ Оболюнский А.В., Барабашев А.Г. Государственная служба: комплексный подход. – М.: 2009. – С. 512.

³⁷ Обара Сусуму. О системе прохождения службы в государственных и общественных учреждениях Японии // Система назначения на должности: с момента принятия на службу и до ухода в отставку. Материалы лекции в АГОС при Президенте РУз. Сентябрь, 1999.

zahirasi – o‘ziga xos ma’lumotlar bazasi bo‘lib, davlat fuqarolik xizmatida rahbarlik lavozimlarini egallashga munosib kadrlarga oid axborot yig‘iladi³⁸.

Tahlillarga ko‘ra, mamlakatimizda 2017-yildan boshlab xalq bilan davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar yanada yaqinlashdi. Davlat xokimiyati organlarining xalqdan ajralib qolganligi holatiga barham berildi. Mazkur ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tanqidiy ko‘zdan kechirish asosida “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan g‘oya o‘rtaga tashlandi. 2017-yil “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”, deb nomlandi. Unga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, shuningdek, har bir tuman va shaharda (tumanga bo‘ysunuvchi shaharlardan tashqari) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonalari tashkil etildi. Shu bilan birga, 2017-yilning 12-dekabridan boshlab, Prezident farmoni bilan davlat xizmatlari ko‘rsatishning milliy tizimi shakllantirildi. Har bir shahar va tumanda tashkil topgan davlat xizmatlari markazlarining asosiy vazifasi aholiga davlat xizmatlarini ko‘rsatishning maqbul, qulay va shaffof uslublaridan foydalanishga, mazkur sohada byurokratiya va korrupsiya yuzaga kelishini bartaraf etishga qaratildi³⁹.

2017-2023-yillardagi ma‘muriy islohotlar natijasida davlat organlarining sohaga oid bo‘lmagan vazifalarni qisqartirish va faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish vositasida bu organlar tuzilmasi o‘rtacha 15 foizga maqbullashtirildi, shuningdek, 26 ta davlat organlari va tashkilotlarida 40 ta rahbar o‘rinbosarlari lavozimlari qisqartirildi. Davlat organlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilish natijasida byurokratik to‘siqlarni qisqartirish va aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatish soddalashtirildi, davlat tashkilotlari tomonidan 60 dan ortiq hujjatlarni talab qilish bekor qilindi. “Elektron hukumat” tizimining foydalanuvchilari soni 4 mln.dan oshib, u orqali davlat idoralarining 130 dan ortiq axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari yaratildi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida qariyb 350 turdagi xizmatlarni onlayn shaklda ko‘rsatishi yo‘lga qo‘yildi⁴⁰.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Davlat fuqarolik xizmatchisi salohiyatini oshirish jarayonlari”**, deb nomlanib, unda davlat fuqarolik xizmatchilarini tayyorlashning institutsional asoslari, uni rivojlantirishda ma‘muriy islohotlarning rolini oshirish, O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatchisi salohiyatini oshirish va baholash mezonlarini shakllanishi masalalari tahlil qilingan. So‘nggi yillarda, davlat boshqaruvining erkinlashtirilishi, davlat hokimiyati organlarini nomarkazlashtirishga doir islohotlarning chuqurlashib borishi rahbar kadrlarga bir qator yangi talablarni, jumladan, boshqaruvning zamonaviy asoslarini o‘zlashtirish va ularni amaliyot bilan bog‘lay olish qobiliyatini o‘stirish zarurati kun tartibiga qo‘yilmoqda.

Davlat xizmatchisi maqomi, obro‘-e‘tibori, nufuzini ko‘tarish masalasi

³⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Prezident Administratsiyasi nomenklaturasidagi lavozimlarga Milliy kadrlar zaxirasiga kiritilgan nomzodlar uchun qisqa muddatli malaka oshirish kursi bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma. II-tom, 2-bosqich. – T.: “Akademiya” 2023. – B. 5.

³⁹ Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-dekabrdagi “Aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5278-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-3454462>.

⁴⁰ Qirg‘izboyev M. Siyosatshunoslik. Darslik. – T.: Sharq. 2024. – B. 415-416.

dolzarblashib bormoqda. Xususan, “Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalarida kasbiy madaniyatga oid umumiy odob-axloq qoidalar, xizmat faoliyatiga oid odob-axloq qoidalar, xizmatdan tashqari odob-axloq qoidalar, jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari vakillari bilan munosabatlarga oid odob-axloq qoidalar, xizmat faoliyatidagi tashqi ko‘rinish va kiyinish uslubiga oid odob-axloq qoidalar, manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish choralari, davlat xizmatchilarining manfaatini himoya qilish, odob-axloqqa rioya etilishini nazorat qilish masalalari tartibga solingan”⁴¹. Ya’ni, ishining ustasi bo‘lish, o‘z sohasining tartib-qoidalar, majburiyat va vazifalarini chuqur bilish, boshqaruv jarayonini samarali yo‘lga qo‘yish, vakolat vazifalarini o‘z vaqtida, sifatli bajarish natijasida muvaffaqiyatga erishish mumkin.

2017-yildan boshlab, davlat fuqarolik xizmati kadrlarini tayyorlash va tanlashning eng asosiy tamoyili sifatida rahbarlik faoliyatining samaradorligiga katta e’tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, *“endi xalq davlat idorasiga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak”*⁴² tamoyili, ya’ni, davlat fuqarolik xizmati kadrlarining xalq xizmatkori bo‘lishi, uning faoliyati fuqarolar manfaatlariga xizmat qilishi, xalq farovonligini ta’minlash eng asosiy vazifasi bo‘lishi lozimligi rahbarni baholashning asosiy mezonini darajasiga ko‘tarildi.

“Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonun (2022) davlat fuqarolik xizmatchisining huquqiy maqomini va lavozimlari, toifalari va malaka darajalarini belgilash, davlat fuqarolik xizmatiga kirish, o‘tash va tugatish jarayonlarining yagona tartibotini o‘rnatish, kadrlarning kasbiy-ma’naviy fazilatlarini va alohida xizmatlarini obyektiv hamda adolatli baholash asosida xizmat pog‘onalari bo‘yicha o‘sish kafolatlarini, umuman yagona davlat fuqarolik tashkiliy-huquqiy tartibga xizmatini solishni nazarda tutadi. Qonunning 4-bob 17-moddasiga muvofiq, davlat fuqarolik xizmatining quyidagi odob-axloq qoidalarini belgilab berilgan: rahbarlar, bo‘ysunuvdagilar va boshqa davlat fuqarolik xizmati o‘rtasidagi o‘zaro axloqiy munosabatlar; davlat fuqarolik xizmatchisining ishchanlik obro‘sigacha va davlat fuqarolik xizmatining nufuziga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan harakatlar (harakatsizlik); davlat fuqarolik xizmatchisining xizmat faoliyatidagi va xizmatdan tashqaridagi xulq-atvorining asosiy qoidalarini.

Qonunning yana bir muhim jihati shundaki, endilikda davlat fuqarolik xizmatchisi o‘z kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish, malakasini uzluksiz oshirib borish uning xuquqi emas, balki xizmat majburiyati etib belgilanmokda. Shuning uchun, qonun bilan davlat fuqarolik xizmatini xizmat pog‘onalarida o‘stirishda ochiq va shaffof mexanizmlarni joriy etish orqali eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) asosida baholash tizimi joriy etildi.

Umuman, so‘nggi yillarda davlat fuqarolik xizmati kadrlari va rahbar kadrlarga qo‘yilgan talablar, ular faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi huquqiy asoslar, milliy

⁴¹ Bekmurodov A.Sh. Korruptsiyaga qarshi kurashish. – T.: Darslik, Akademiya, 2022., – B. 25.

⁴² Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston. 2017. – B 105.

ma'naviy qadriyatlarimizga xos bo'lgan milliy boshqaruv an'analari asosida shakllangan qoidalarini amaliyotga qo'llash natijasida talablar majmui shakllandi.

Ma'lumki, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev O'zbekiston yoshlari va talabalari forumida iqtidorli yoshlar orasidan yangi avlod zaxira kadrlari – “Kelajak liderlari”ni shakllantirish tashabbusini ilgari surdi. Bu tashabbusga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi PF-6260-sonli “Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni⁴³ bilan tasdiqlangan Dastur ijrosini ta'minlash maqsadida “Kelajak liderlari” klubi ta'sis etildi. Klub oldiga salohiyatli yoshlarni davlat fuqarolik xizmatiga tayyorlash, ularda liderlik ko'nikmalarini shakllantirish, yosh kadrlarni seleksiya qilish, yoshlar orasida davlat xizmati jozibadorligini oshirish vazifalari qo'yildi. Mazkur tashabbusni amalda joriy etish maqsadida 4 bosqichli tanlov natijalariga ko'ra, respublika bo'yicha jami 680 nafar eng munosib yoshlardan iborat “Kelajak liderlari” klublari tuzildi. Qisqa vaqt ichida yosh liderlar tomonidan “Hokim bilan bir kun”, “Dublyor”, “Sektor rahbari bilan bir kun”, “Kitobxonlik”, “Lider kitobxon”, “Har oyda bitta maktab”, “100 kunda 10 ta kitob”, “Ozodalik - salomatlik garovi”, “Bir buyuk shaxsni kashf qil”, “English club”, “50 nafar yangi liderlarni kashf et”, “Salomatlik kuni”, “Mahalla raisiga dublyor”, “Notiqlik san'ati”, “Rahbar imiji”, “Kelajak liderlari kutubxonasi” kabi loyihalar tashkil qilindi. Shuningdek, yoshlar turli sohada muvaffaqiyatga erishgan davlat xizmatchilaridan maxsus saboqlar oldilar. “Liderlar “ilm.argos.uz” platformasi orqali o'zlarining nazariy bilimlarini oshirib, tuman (shahar) viloyat hokimliklarida malaka oshirdi. Loyiha yo'lga qo'yilganiga qisqa vaqt bo'lishiga qaramay 60 nafardan ortiq yosh liderlar yuqori lavozimga tayinlandi⁴⁴.

Bu sohada isloxotlar izchil davom etmoqda. Haqiqatan ham davlat fuqarolik xizmatida kadrlar siyosati masalaga kompleks tarzda yondashuvni talab qiladi. O'zbekistonda yangi tashkil etilgan Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi⁴⁵ davlat fuqarolik xizmati foliyatini tizimli tashkil etish va yo'lga qo'yish uchun muhim bo'lgan bir qator ustuvor vazifalarni bajarib kelmoqda. Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, sohada Davlat fuqarolik xizmatini kompetensiyalar asosida baholash tizimi joriy etilib, 20 ming martaga yaqin psixologik testlar olindi. 3 ming nafardan ortiq ko'nikmalar pasporti, jumladan, 5 ming nafar rahbar kadrlar uchun psixologik portret shakllantirildi. Turkiya, Ozarbayjon, Malayziya, Singapur, Koreya, Fransiya, Germaniya davlatlarida tashkil etilgan malaka oshirish kurslarida 90 nafardan ortiq davlat xizmatchilari ishtirok etdi. Davlat organlari va tashkilotlarida xodimlarni boshqarish tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, inson resurslarini boshqarish faoliyatini raqamlashtirish maqsadida “Davlat fuqarolik xizmati sohasida inson resurslarini boshqarish” (hrm.argos.uz) axborot tizimi ishlab chiqildi. Hozirda tizimga 4 mingga yaqin tashkilotlar ulangan⁴⁶.

⁴³ Qarang: www.lex.uz

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi veb sayti ma'lumoti. 2021-yil 22-dekabr, <https://argos.uz/uz/press-center/news/255>.

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrda “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4472-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-4552053>.

⁴⁶ Qarang: hrm.argos.uz.

Davlat boshqaruvida milliy manfaatlar negizida me'yor va muvozanatni belgilash asosiy tamal toshidir. Har bir fuqaro ongiga "halollik vaksinasi" oilada va yoshligidan singdirib borilmog'i lozim. Bu borada Singapur tajribasi diqqatga molik. Mamlakatda inson kapitalini rivojlantirishga va uning yaratuvchanlik faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi uch ijtimoiy omil, ya'ni: a) korrupsiyaga qarshi uzluksiz kurash olib borish va rahbarlarda noto'g'ri yo'lga kirishga nisbatan barqaror immunitetni shakllantirish; b) adolatni o'rnatish; s) beparvolik, tanballik va loqaydlikka qarshi murosasiz kurash olib borish ustuvor masalalar sifatida belgilangan⁴⁷.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" gi Qonunida (2017) davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar belgilanib, davlat xizmatchisining qonunda belgilangan odob-axloq qoidalarini samarali amalga oshirish orqali uning faoliyatida korrupsiyaviy holatlarning oldi olinadi⁴⁸, deyilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan tadbirlar davlat xizmatida qonuniylik va ochiqlikni ta'minlash, uning turli ko'rinishlariga chek qo'yishga zamin yaratadi. Xususan, rahbar kadrlar qarindoshlik, hamshaharlik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo'yicha tanlash va joy-joyiga qo'yish holatlariga yo'l qo'ymasligi, guruhbozlik, mahalliychilik, favoritizm ko'rinishlarining, shuningdek o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning qat'iy ravishda oldini olishi lozim.

Jamiyat hayotini demokratlashtirishning muhim vositalaridan yana biri – davlat organlari ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish bilan bog'liq. Mahalliy hokimiyat organlari ko'pchilik xohishiga bo'ysunish va ozchilik irodasini hurmat qilish tamoyillariga asoslanib, chinakamiga xalq hokimiyatchiligini joriy etishga intilar ekan, o'z faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishdan manfaatdor bo'lishlari kerak. Jamiyat hayotida g'oyaviy plyuralizmni, ya'ni fikrlar xilma-xilligini ta'minlash va uni kafolatlash ham mahalliy hokimiyat organlarining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Strategik islohotlar agentligi kengashi tuzilgan. Agentlikning maqsad va vazifalari – har bir sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni yagona g'oya va strategiya ostida birlashtirish, ular oxirigacha yetkazilishini nazorat qilish, xorijiy va mahalliy ekspertlar ishtirokida jamiyat rivoji va xalq manfaati uchun zarur bo'lgan islohotlarni ishlab chiqish, mavjudlarini ekspertizadan o'tkazishdan iborat. Ushbu demokratik islohotlardan ko'zlangan maqsad "O'zbekiston-2030" strategiyasi va davlat dasturlarining ijrosini monitoring qilish asosida ularning to'laqonli va sifatli amalga oshirilishini muvofiqlashtirish; xalqaro moliya institutlari, chet el tashkilotlari va xorijiy mutaxassislarni hamda beg'araz ko'mak mablag'larini jalb qilish ishlarini tizimli tashkil etish, ular bo'yicha axborot va hisobotlarning ma'lumotlar bazasini yaratishdir"⁴⁹.

⁴⁷ Bekmurodov A.Sh. O'zbekiston – Singapur rahbar kadrlarni tayyorlash qo'shma ta'lim markazi: mo'ljallar va istiqbollar mavzusidagi davra suhbatlari to'plami. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasi. – T.: 2023. – B. 27.

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 1-son, 2-modda.

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-sentyabrdagi "Strategik islohotlarni jadallashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-216-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/6188642>.

Davlat fuqarolik xizmatining ijtimoiy xususiyati quyidagi omillar orqali shakllantirilmoqda: jamiyat miqyosida (ijtimoiy institut tabiati, uning maqsadi va vazifalari); davlat xizmatchilarining ijtimoiy qadriyatlari miqyosida (qoidalar, majburiyatlar, an'analar, me'yorlar); alohida davlat xizmatchilari faoliyatini baholash miqyosida (ijtimoiy mavqe, nufuz, imij, reyting). Bu borada mamlakatimizda tizimli va uzoq muddatga mo'ljallangan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Shu o'rinda Prezident huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi faoliyati haqida gapirishga to'g'ri keladi. 1996-yilda tashkil etilgan Akademiya o'z faoliyati davomida to'rt marta isloh qilindi. Ammo so'nggi yillarda yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oqsashlik ko'zga tashlanadi. Misol uchun, 2018-2021 yillarda (Davlat boshqaruvi akademiyasi) Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasining magistratura bosqichini jami 267 nafar tinglovchilar tamomladi⁵⁰. Ammo monitoring natijalariga ko'ra, ushbu kontingentning yarmidan ortig'i davlat fuqarolik xizmatida faoliyat yuritmay, boshqa sohalarga o'tib ketishdi. Shu sababli davlat fuqarolik xizmatini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish, davlat xizmatchilari ishini natijadorlikka yo'naltirish, aholining davlat xizmatiga bo'lgan ishonchini yanada oshirish, sohaga istiqbolli kadrlarni jalb qilish va ularni professional mutaxassis etib tayyorlashning samarali tizimini joriy qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi PF-95-son "Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo'naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi⁵¹.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonalarini tashkil etilishi o'ziga xos institut sifatida eng muhim yangiliklardan biri bo'ldi, deyishga xaqlimiz. Buni MDH mamlakatlari ichida xalq bilan muloqotni jonlantirish yo'nalishida ijobiy tajriba ekanligi isbotini topdi. 2017-2025-yillarda olib borilgan amaliy ishlar natijasida davlat hokimiyatining aholi bilan samarali muloqoti tashkil etilib, fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqishning sifat jihatidan yangi tizimi yo'lga qo'yildi, "Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyili ishga tushib, davlat xizmatlari ko'rsatishning yangi tizimi shakllantirildi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida Davlat xizmatlari agentligi tashkil etildi va Davlat xizmatlari markazlarida "Yagona darcha" tamoyili bo'yicha ko'rsatiladigan 58 ta davlat fuqarolik xizmatining ro'yxati tasdiqlandi⁵². Bugungi kunga kelib ikki yuzdan ziyod markazlar tomonidan 600 tadan oshiq xizmatlar ko'rsatilmoqda. Haqiqatan ham, davlat boshqaruvida 2017-yildan boshlab kadrlar masalasiga yondashuvda yangi bosqich boshlandi. Islohotlar davomida boshqaruv apparati xodimlarini qisqartirish, mahoratli boshqaruv kadrlariga ega bo'lish bosh maqsad qilib olindi.

2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish orqali O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi⁵³

⁵⁰ Qarang: www.dba.uz.

⁵¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi PF-95-son "Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo'naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. // <https://www.lex.uz/docs/-7587464>

⁵² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-dekabrda "Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5278-sonli Farmoni. // <https://lex.uz/ru/docs/-3454462>

⁵³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2023, <https://lex.uz/docs/6445145#6445556>.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq o‘tkazilgan prezidentlik saylovi yana bir bor jamiyatimizning siyosiy yetukligi, Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqimiz to‘liq qo‘llab-quvvatlaganidan dalolat bermoqda. Shu bilan birga, yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish talab etilmoqda⁵⁴. Bizning fikrimizcha, davlat fuqarolik xizmatida samaradorlikni oshirishda ma‘muriy axloq masalasi ham yetakchilik qiladi. Davlat xizmatchisiga xos me‘yorlarga odoblilik, xushfe‘llik; davlat organiga kelgan har bir fuqaroga nisbatan hurmat; o‘zining ba‘zi fuqaroviy huquqlarini ongli va ko‘ngilli ravishda cheklash (masalan, davlat siyosatini ko‘pchilik oldida tanqid qilish, hokimiyat organlari va davlat arboblarni muhokama qilish; u yoki bu masalani hal qilishda shaxsan o‘z nomidan va‘da berish); xizmat sirini saqlash va boshqalar kiradi.

Mamlakatimizda ulkan strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun qabul qilingan “O‘zbekiston-2030” strategiyasi”da hokimliklarning mahalliy kengashga rahbarlik qilish amaliyotini to‘liq bekor qilib, kengash raisining huquqiy maqomi, asosiy vazifa va funksiyalari hamda javobgarlik doirasini aniq belgilash; hokimliklar va vazirliklar bo‘linmalarining bir-birini takrorlovchi 70 dan ortiq funksiyalarini optimallashtirish; elektron shaklda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari ulushi 100 foizgacha yetkazish; “elektron hukumat” tizimining yangi bosqichi – “Raqamli hukumat” tizimiga o‘tilib, barcha hujjatlar va munosabatlarning raqamli shaklda bo‘lishini ta‘minlash; davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish siyosati doirasida respublika ijro etuvchi xokimiyat organlarining kamida 30 foiz vazifa va funksiyalarini mahalliy ijro etuvchi organlarga o‘tkazish; demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish maqsadida vakillik organlariga saylovning aralash (majoritar-proporsional) tizimini joriy qilish”⁵⁵ vazifalari belgilanishi siyosiy islohotlarning davomiyligini ta‘minlab beradi, deb hisoblaymiz. Birgina 2024-2025 yilda mazkur vazifalarning aksar qismi amalda bajarildi.

Dissertatsiyaning **“Yangi O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmati institutini rivojlanish natijalari va istiqbollari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobda davlat fuqarolik xizmati samaradorligini oshirish bosqichlari, bunda raqamli transformatsiya va zamonaviy texnologiyalarning o‘rni va Yangi O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmati faoliyati samaradorligini oshirish istiqbollari ko‘rib chiqilgan va tahlil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar. Davlat xizmatini o‘tash bilan bog‘liq cheklovlar qonun bilan belgilanadi”⁵⁶, deya belgilab qo‘yilgan. “O‘zbekiston-2030” strategiyasining “Qonun ustuvorligini ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish” deb nomlangan 4-yo‘nalishining “Davlat fuqarolik xizmatini *meritokratiya*, halollik va professionallik tamoyillari

⁵⁴ Omonov B.A. Davlat xizmatlari asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: Tafsir Books, 2024. – B. 200.

⁵⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 11-sentyabr 2023-yil 11-sentyabr // <https://lex.uz/docs/6600413>.

⁵⁶ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T: O‘zbekiston, 2023. <https://lex.uz/docs/6445145#6445556>.

asosida tashkil etish” deb nomlangan 81-bandida bir qator vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Bular: kadrlar bilan ishlash bo‘yicha 2 mingdan ortiq tarkibiy tuzilmalar faoliyatini to‘liq raqamlashtirish; davlat fuqarolik xizmatini uzluksiz malaka oshirib borish tizimi bilan qamrab olish darajasini 100 foizga yetkazish; milliy kadrlar zaxirasida rahbarlik lavozimlariga nomzodlar sonini kamida ming nafarga yetkazish; davlat organlari rahbarlari va ularning o‘rinbosarlari faoliyatini jamoatchilik fikri asosida baholash amaliyotini yo‘lga qo‘yish⁵⁷ mo‘ljallangan.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tasnifiga ko‘ra, davlat fuqarolik xizmatidagi kadrlarning ustuvor fazilatlari ushbu jadvalda keltirib o‘tishga harakat qildik:



Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentyabrdagi PF-5185-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasi”ning 6-ustuvor yo‘nalishida professional davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish vazifasi belgilangan⁵⁸. Keyingi yillarda O‘zbekistonda davlat boshqaruvi organlarining isloh etilishi davlat xizmatchilarining boshqaruv mahoratlarini oshirishga, ularni tanlash, tayyorlashni takomillashtirishga keng sharoitlar yaratmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunining 11-moddasiga asosan, davlat fuqarolik xizmatchisi kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag‘batlantirilish; davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish; davlat organi rahbariyatining noqonuniy

⁵⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.

⁵⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5185-son Farmoni. // <http://lex.uz/docs/3331174>.

topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish; davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta'minlanish; davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish huquqlariga ega. Shu bilan birga, Qonunning 14-moddasiga binoan, davlat fuqarolik xizmatchisining javobgarligi ham ko'rsatib o'tilgan⁵⁹. Shu o'rinda, kadrlar sohasida islohotlar jadallashgan jarayonda manfaatlar to'qnashuvining ahamiyati haqida gapirmay o'tolmaymiz.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan 2024-yil 5-iyunda imzolangan "Manfaatlar to'qnashuvi" to'g'risidagi O'RQ-931-son Qonunida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi axborotni oshkor etishga va manfaatlar to'qnashuvini aniqlashga doir choralar; manfaatlar to'qnashuvini hal qilish bo'yicha ko'rilgan choralarni ko'rib chiqish va tekshirish tartibi aniq belgilab berildi⁶⁰. Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi mazmunida bevosita siyosiy, iqtisodiy va shaxsiy manfaatlar yuzasidan kelib chiqadigan to'qnashuv, ziddiyatlar yotadi, ya'ni shaxsning o'z manfaatidan foydalanishi yoki foydalanishga urinishi yotadi.

Bugungi kunda davlat fuqarolik xizmatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi qabul qilingan, u "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan 100 ta ustuvor maqsadlardan kelib chiqib, hozirgi tezkorlik bilan o'zgarib borayotgan yangi sharoitlarga moslashuvchan, professional, innovatsion va natijadorlikka qaratilgan davlat fuqarolik xizmatining yangi modelini yaratish maqsadida ishlab chiqilgan. Mazkur Strategiya 5 ta bobdan iborat bo'lib, unda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanadi: davlat organi, davlat fuqarolik xizmatining karyeraviy modeli, davlat fuqarolik xizmatining pozitsiyaviy modeli, davlat fuqarolik xizmatining gibridd model va davlat fuqarolik xizmatida inklyuzivlik. Shu bilan birga rivojlantirish strategiyasining 8 ta banddan iborat maqsadli ko'rsatkichlari belgilab berildi⁶¹.

Mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlarda rivojlangan ilg'or mamlakatlarning tajribalari va asrlar davomida rivojlanib kelgan milliy davlatchiligimizning o'ziga xos an'ana va udumlari asosiy mezon bo'lib xizmat qildi. Professor M.Qirg'izboyev ta'kidlaganidek, mazkur mezonlar uyg'unligi asosida mamlakatimiz rahbari tomonidan mahalliy hokimiyat institutlari boshqaruvining kuchli mexanizmi yaratildi. Davlat hokimiyati organlari faoliyati tubdan isloh qilinib, ularning asosiy vazifalari belgilab olindi. Fuqarolik jamiyati insonning o'zini-o'zi hayotda namoyon qila olishi uchun shart-sharoitlar yaratib berishi bilan alohida ajralib turishi o'z isbotini topdi⁶². Keyingi yillarda respublikamizning davlat boshqaruvi sohasida sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ularning tezkorligini oshirish va ijrosini ta'minlash maqsadida sohaga turli axborot texnologiyalari kirib kelmoqda.

"Ijro.gov.uz" – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlarini monitoring qilish tizimidir. 2021-yil 31-mayda

⁵⁹ O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son Qonuni // <https://lex.uz/ru/docs/-6145972>.

⁶⁰ Qarang: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.06.2024-y., 07/24/210/0405-son.

⁶¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi "Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo'naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-95-son Farmoni // <https://www.lex.uz/docs/-7587464>

⁶² Qirg'izboyev M. Siyosatshunoslik. – Toshkent.: Darslik. Sharq. 2024. – B. 187.

mamlakatimizda PQ-5132-sonli “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Bundan ko‘rinib turibdiki, endilikda barcha davlat organlari va tashkilotlari tashkiliy, ijro va nazorat faoliyatini yagona axborot tizimi orqali amalga oshiradi.

2018-2025 yillardan boshlab Davlat xizmatlari markazlarida “Yagona darcha” tamoyili bo‘yicha my.gov.uz sayti orqali onlayn davlat xizmatlari tizimi yo‘lga qo‘yilishi korrupsiya xolatlarini oldini olishga, byurokratiya, sansolarlikni kamaytirishga yordam bermoqda. Davlat va jamiyatga xizmat qilishning axloqiy tamoyili davlat xizmatchilaridan davlat va uning organlari vakolatlarini jamiyat ravnaqi yo‘lida halol, sidqidildan va yuqori kasbiy darajada samarali ado etishni talab qilmoqda. Professor B.Omonovning fikricha, dunyoning har bir mamlakatida davlat xizmatlarini ko‘rsatish samaradorligini oshirish boshqaruvni zamonaviy darajaga ko‘tarish va fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlarini qondirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega⁶³.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev davlat fuqarolik xizmati kadrlarini muvaffaqiyatga erishishida “har bir davlat xizmatchisi har kuni o‘zining mehnati bilan egallab turgan lavozimiga loyqligini isbotlashi shart”⁶⁴ligi shu sohaning ustuvor vazifasiga aylanmoqda. O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini salohiyatli va istiqbolli rahbar kadrlar bilan ta‘minlashda nomzodlarning bilim va ko‘nikmalarini zamonaviy texnologiyalar asosida baholash hamda natijalarini tahlil qilish, shuningdek, rahbar kadrlar faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan manzilli choralar ko‘rish maqsadida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi muassisligida Rahbar kadrlarni baholash markazi tashkil etildi⁶⁵.

Mamlakatimizda 2017-yillardan boshlab, “Elektron hukumat” tizimining joriy etilishidir. Umuman olganda, davlat boshqaruviga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, ma‘muriy byurokratiyadan kelib chiqadigan xarajatlar va xarajatlarni kamaytirish, ish samaradorligi va samaradorligini oshirish imkonini beradi, aholining turli axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida davlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi, davlat xizmatlari faoliyatining shaffofligini oshiradi va byurokratik to‘siqlarni kamaytiradi. O‘zbekistonda elektron hukumat tizimini joriy etishdan ko‘zlangan maqsad: 1. Aholiga va tadbirkorlik sub’ektlari uchun davlat xizmatlari ko‘rsatish samaradorligini oshirish; 2. O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirish; 3. Aholining zamonaviy ko‘nikmalari va texnologik xabardorlik darajasini oshirish; 4. Saylovchilarning mamlakatni boshqarish jarayonlarida ishtiroki darajasini oshirish, geografik joylashuv va ish vaqti omillarining ta‘sirini kamaytirish⁶⁶.

⁶³ Omonov B. Davlat xizmatlari asoslari. O‘quv qo‘llanma, – T.: Tafsir Books, 2024. – B. 238.

⁶⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5308-sonli Farmoni. Ma‘rifat. 24.01.2018 y., № 7.(9072). – B. 3.

⁶⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-oktyabrdagi “Rahbar kadrlarni baholash markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi 629-son qarori. // <https://lex.uz/ru/docs/-7131978>.

⁶⁶ Omonov B. Davlat xizmatlari asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: Tafsir Books, 2024. – B. 120-121.

Kadrlarni tanlash va ishga qabul qilishda ochiq tanlov tizimining yo‘lga qo‘yilishi muhim voqea bo‘lib, bu - korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda, yangicha yondashuv asosida kadrlarni tanlashda eski usullardan voz kechilib, ularning intellektual salohiyatini, ma‘naviy fazilatlarini baholaydigan ochiq va oshkora tanlov tizimi joriy etilmoqda.

2020-yil avgust oyida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlari yagona ochiq portali - vacancy.argos.uz faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Mazkur portal davlat organlari va tashkilotlarining vakant lavozimlariga eng istiqbolli kadrlarni ochiq mustaqil tanlov asosida qabul qilish maqsadida ishlab chiqilgan. 2030-yilgacha davlat fuqarolik xizmati tizimini yanada takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining natijadorligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga qamrab oladi: davlat fuqarolik xizmati tizimida institutsional islohotlarni amalga oshirish; korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish hamda milliy qadriyat va korporativ madaniyatni mustahkamlash; davlat fuqarolik xizmatida inklyuzivlikni oshirish va gender tenglikni ta‘minlash; munosib rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish, istiqbolli kadrlar bilan ishlashning samarali mexanizmlarini joriy etish; davlat fuqarolik xizmatini raqamlashtirish va transformatsiya qilish; inson resurslarini zamon talablariga muvofiq rivojlantirib borish, shu jumladan, kompetensiya modelini joriy etish; davlat fuqarolik xizmati jozibadorligini oshirish, davlat fuqarolik xizmatchilarining ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta‘minlash⁶⁷.

Mamlakatimizda zamonaviy davlat boshqaruvi tizimini rivojlantirish va yanada takomillashtirishda davlat xodimining odobi uning idorada, tadbirlarda, jamoada, oilada o‘zini tutishi, mulohaza va vazminlik bilan har qanday vaziyatga to‘g‘ri baho berib muomala qila olishini, faoliyat va davlat manfaatlarini o‘z manfaatlaridan ustun qo‘yishini nazarda tutadi. Bunday xislatlarga nafaqat rahbar xodim, balki davlat xizmatining barcha ishchilari ega bo‘lishi kerak. Davlat xizmatchisini tanlashda bu fazilatlarga katta ahamiyat berish, shubhasizki, idora faoliyati samaradorligini oshirishga ta‘sir ko‘rsatadi, qolaversa, yaxshi muhitda va ahil jamoada ish sifati yanada oshadi. Imom Moturidiy bobomizning: “El-u yurt bilan hamdard bo‘lib yashagin, toki xalq hamisha sen bilan birga bo‘lgay”, degan hayotiy hikmati har bir vazir, har qaysi rahbarning ongi, qalbi va harakatida muhrlanishi lozim⁶⁸. Bugungi kunda olib borilayotgan ishlar bilan birga, hali bu yo‘nalishda ko‘plab muammolar mavjud. Sadoqat bilan xizmat qilish, xalq bilan muloqot, ularni rozi qilish har bir davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatining asosiy tamoyiliga aylangan bir vaqtda, ayrim rahbar va xodimlar xizmat vazifasiga, fuqarolarga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirmayapti. Ularning ayrimlarining fe‘lida manmanlik, uzoqni ko‘ra bilmaslik va

⁶⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi PF-95-son “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. // <https://www.lex.uz/docs/-7587464>.

⁶⁸ Mirziyoyev Sh.M. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. 7-jild, – T.: O‘zbekiston, 2023. – B. 206.

faoliyatida esa mas'uliyatsizlik, sansalorlik, ijtimoiy adolatsizlik, byurokratizm, korrupsiya kabi zamonaviy boshqaruvga yot bo'lgan illatlarni ko'rish mumkin.

XULOSA

Yangi O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirish tendensiyalarini o'rganish asosida quyidagi nazariy xulosalarga kelindi:

